



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING BOZOR KON'YUNKTURASI TAHLILI

PhD Abdullayeva Sevaraxon

Qo'qon Universiteti

ORCID: 0000-0002-8596-2473

sevarikabdullayeva@gmail.com

Annotatsiya. *To'qimachilik sanoati mahsulotlari yuqori qo'shilgan qiymat darajasiga ega, valyuta tushumi uchun qulay, mamlakat byudjetining daromad qismini shakllantiradigan hamda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish manbalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, ushbu sanoat tarmog'i aholini ish joy va daromad bilan ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra, to'qimachilik sanoatining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rnini e'tiborga olgan holda soha ko'rsatkichlarini tahlil etish asosida undagi majud, ammo foydalanilmagan imkoniyatlarni aniqlash zarur hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *to'qimachilik sanoati, mamlakatlarning eksport tarkibi, yetakchi mamlakatlar, innovatsion va sifatli dizayn, kalava-ip importi.*

АНАЛИЗ РЫНОЧНОЙ КОНЪЮНКТУРЫ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОДУКЦИИ

PhD Абдуллаева Севарахон

Кокандский университет

Аннотация. *Продукция текстильной промышленности имеет высокий уровень добавленной стоимости, благоприятна для валютных поступлений, формирует доходную часть бюджета страны и является одним из источников реализации социальных программ. Эта отрасль также играет важную роль в обеспечении населения рабочими местами и доходами. Соответственно, на основе анализа отраслевых показателей с учетом места текстильной промышленности в развитии экономики страны необходимо определить имеющиеся, но не использованные в ней возможности.*

Ключевые слова и фразы: *текстильная промышленность, структура экспорта стран, ведущие страны, инновационный и качественный дизайн, импорт пряжи и пряжи.*

ANALYSIS OF THE MARKET CONDITIONS OF TEXTILE PRODUCTS

PhD Abdullaeva Sevarakhon

Kokand University

Annotation. *The products of the textile industry have a high level of value added, are favorable for foreign exchange income, form part of the income of the country's budget and are one of the sources of implementation of social programs. The industry also plays an important role in providing the population with jobs and income. Accordingly, based on the analysis of industry indicators, taking into account the place of the textile industry in the development of the country's economy, it is necessary to determine the majud, but unused opportunities in it.*

Key words: *textile industry, export composition of countries, leading countries, innovative and high-quality design, kalava-ip import.*

Kirish.

Mamlakatlar o'rtasida savdo aloqalarining yo'lga qo'yilishi, shuningdek barcha yangi davlat va hududlarning xalqaro tovar aylanmasiga jalb etilishi jahon bozorini o'zgarishiga va ishlab chiqarish sohasidagi raqobatning kuchayishiga hamda bozorlarni kundalik iste'mol va texnik mahsulotlar bilan to'yintirish jarayonlarining jadallashuviga sabab bo'lmoqda. So'nggi bir necha yillar davomida yevro kursining oshishi va bir qator mamlakatlarning tadbirkorlik faoliyatini pasayishi natijasida to'qimachilik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish stagnatsiyasi yuzaga keldi hamda jahon bozorida asosiy o'rinni egallab kelgan ishlab chiqaruvchilar o'zgardi.

Hozirda to'qimachilik sanoati sohasida yetakchi bo'lib Xitoy, O'rta va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, shuningdek so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan Janubiy Amerika mamlakatlari hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ustuvor tarmoq sifatida e'lon qilingan. 2023 yilgacha bo'lgan davr mobaynida ushbu mamlakatlarning ishlab chiqarish tarmoqlari va rivojlanayotgan bozorlari jahon iqtisodiyotining katta qismini, AQSH va Yevropa mamlakatlarining iqtisodiyotiga nisbatan daromad o'sishining yuqori ulushini tashkil etdi (Abdullaeva, 2019).

Jahon mamlakatlarining eksport tarkibi bilan mamlakatimiz eksportini solishtirish asosida shunday xulosani shakllantirish mumkinki, to'qimachilik sanoat, xususan O'zbekistonning to'qimachilik sanoatida bir necha yillar davomida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan pirovard mahsulotlarning ulushi 30 % ni tashkil etgan. Yetakchi jahon mamlakatlari to'qimachilik sanoatining eksporti tarkibining asosiy ulushini esa aynan tayyor mahsulotlar – kiyim-kechak, trikotaj, teri va poyabzal, mo'yna va mo'ynadan tayyorlangan mahsulotlar tashkil etadi.

Adabiyotlar sharhi.

To'qimachilik sanoati global miqyosda iqtisodiy rivojlanishning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu tarmoqda raqobat kuchayib, ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanishi, ekologik me'yorlarning joriy etilishi va global savdo siyosatlarining o'zgarishi bozor kon'yunkturasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, Bozor tadqiqotlari va konsalting guruhi (IMARC Group, 2024) ning statistik tadqiqotlarining natijalariga ko'ra Dunyo to'qimachilik bozori hajmi 2024 yilda 1.06–1.7 trillion AQSh dollariga yetgan va 2030-yilgacha 1.9 trillion dollarga yetishi kutilmoqda (IMARC Group, 2024). Xitoy, Hindiston, Bangladesh va Vetnam kabi mamlakatlar global yetkazib beruvchilarning asosiy qismini tashkil qiladi.

Textile Exchange (2023) hisobotiga ko'ra to'qimachilik mahsulotlari tabiiy (paxta, jun), sun'iy (polyester, naylon), va regeneratsiyalangan (viskoza, lyosel) to'qimalarga bo'linadi. Ularning bozordagi ulushi va narx shakllanishi xom ashyo ta'minoti, ishlab chiqarish xarajatlari va ekologik talablar bilan chambarchas bog'liqdir (Textile Exchange, 2023).

Jahon Banki (2023) ma'lumotlariga ko'ra, hozirda, to'qimachilik sanoatida bir tomondan raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari jadallashsa, ikkinchi tomondan, iste'molchilarning ekologik ongining ortishi "yashil ishlab chiqarish" strategiyalariga talabni keskin oshirgan. Shu sababli, joriy bozor kon'yunkturasi nafaqat iqtisodiy, balki texnologik va ekologik omillar bilan belgilanmoqda.

Mahalliy olimlardan Ibragimov, Khurramov, Kazakova va boshqalarning tadqiqot ishlarida (2020) O'zbekistonda so'nggi yillarda paxta xom ashyosidan tayyor mahsulotgacha bo'lgan to'liq qiymat zanjirini yaratish yo'lida muhim islohotlar tahlil etilib, MITSA (Mega Integrated Textile and Apparel) klasterlari, "Cotton Campaign" dagi ijobiy o'zgarishlar va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv O'zbekiston to'qimachilik sanoatining yangi bosqichga o'tganligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, eksportbop mahsulotlar assortimenti, tashqi talab o'zgaruvchanligi va logistika xatarlari kabi omillar mamlakat uchun barqaror bozor kon'yunkturasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.

Xalqaro amaliyotda Saki, Cleary, Xiangtai Zuo va boshqalar (2019) Jahon miqyosidagi tekstil korxonalarining eksport hajmi, dinamikasi va rentabelligini o'rganish asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish taklif etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraktsiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning sezilarli ko'magi bilan to'qimachilik sanoatining jadal rivojlanishiga erishilgan bo'lib, natijada ishlab chiqarish kuchlarini qayta taqsimlashga zaruriyat yuzaga keldi. Xususan, ommaviy ishlab chiqarish markazlari hisoblangan G'arbiy Yevropa va AQSH kabi mamlakatlardagi xom-ashyoga dastlabki ishlov beruvchi korxonalar o'z faoliyatini ish haqi xarajatlari, ya'ni ishchi kuchi qiymati past bo'lgan-O'rta va Janubi-SHarqiy Osiyo, Janubiy Amerika kabi mamlakatlarga ko'chirdi. Yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarda esa ishlab chiqarish yuqori texnologiyalarga asoslangan bo'yash va yakuniy ishlov berishga, innovatsiya va sifatli dizaynga asoslangan yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga, yuqori sinfdagi zamonaviy, texnik jihatdan murakkab hamda maxsus to'qimachilik, ya'ni bu sohadagi eng so'nggi ishlanmalarni qamrab olgan – "aqlli" to'qimachilik uchun mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirildi.

To'qimachilik sanoati, shuningdek, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida muhim sektorlardan biri hisoblanadi. Paxta esa to'qimachilik sanoatida qo'llaniladigan eng muhim xom-ashyolardan biridir. Dunyo bo'yicha paxta tolasini asosiy ishlab chiqaruvchi mamlakatlar Xitoy (6,7 mln tonna), Hindiston (5,7 mln tonna), AQSh (3,2 mln tonna), Braziliya (2,5 mln tonna), Avstraliya (1,3 mln tonna), Turkiya (1,1 mln tonna), Pokiston (0,9 mln tonna) bo'lib, ushbu mamlakatlar tomonidan jahon paxtasining qariyb 83,9 foizi etishtiradi.

Jahon paxtasining qariyb 85,1 foizini Xitoy (8,2 mln tonna), Hindiston (5,1 mln tonna), Pokiston (1,9 mln tonna), Bangladesh (1,7 mln tonna), Turkiya (1,6 mln tonna), Vetnam (1,4 mln tonna), Braziliya (0,7 mln tonna) iste'mol qilgan holda eng yirik paxta iste'molchilari guruhini tashkil etadi.

Jahon to'qimachilik sanoatining rivojlanishi Dunyo aholisi sonining doimiy ko'payishiga, turmush farovonligining yaxshilanishiga va mahsulot sotib olish imkoniyatining oshishiga bevosita bog'liq. O'tgan o'n besh yil mobaynida savdo aylanmasi hajmi 2 barobardan ziyodga oshdi. Mato, kiyim va poyabzal iste'moli Yevropa Ittifoqi davlatlarida 90,5 foizga, Amerika qo'shma shtatlarida 99,3 foizga, Yaponiyada 2 martadan ko'proq hajmga oshdi. Rossiyaning to'qimachilik sanoati ishlab chiqarish quvvati bo'yicha dunyoning ko'plab yetakchi mamlakatlaridan ustun bo'lishiga qaramay, jahon savdo aylanmasining atiga 1,9 foizini tashkil etadi.

Jahon bo'yicha paxta tolasining yuqori raqobatbardosh narxlari hamda ip-gazlama va to'qimachilik mahsulotlariga talabning oshib borayotganligi eksport, import talabining ortib borishiga sabab bo'ldi.

Paxta tolasini ishlab chiqarish barqaror ravishda kelgusi o'n yil davomida yiliga 1,81 foizga o'sib, 2032 yilda o'rta va past darajadagi mamlakatlarda aholi soni va daromadining ortishi hisobiga 28,2 mln tonnaga etishini prognoz qilimoqda, bu 2023 yilga nisbatan 12,6 foizga ko'p. Umuman olganda, paxta etishtirishning o'sishi, asosan, yuqori hosildorlik va ekin maydonlarining ko'payishi bilan bog'liq.

Osiyoda so'nggi o'n yilliklarda paxtani qayta ishlash quvvati sezilarli darajada oshgani kuzatildi va bu tendentsiya keyingi o'n yillikda ham saqlanib qolishi kutilmoqda. Osiyo mamlakatlarida so'nggi yillarda to'qimachilik sanoatining faol o'sishi kuzatilgan bo'lib, kelgusi o'n yil ichida yirik xorijiy investisiyalar hisobidan to'qimachilik sohasida ishlab chiqarish yanada oshishi mumkin. Shunga qaramay, Hindiston, Xitoy, AQSh, Braziliya va Pokiston etuk

ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bo'lib qolmoqda. Umumiy olganda, 2032 yilda jahon bo'yicha ishlab chiqarishning qariyb 78 foizi ushbu mamlakatlar hisobiga to'g'ri keladi.

2023 yilda Xitoy (o'rtacha 1,91 t/ga) va Braziliyada (1,74 t/ga) hosildorlik jahon bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan (0,74 t/ga) ikki baravar ko'p bo'ldi. AQSh, Hindiston va Braziliyada ekin maydonlarining biroz ko'payishi ham paxta etishtirishning o'sishiga xizmat qilmoqda.

Xitoyda iste'mol 2007 yilda eng yuqori cho'qqiga chiqdi, ammo shundan buyon pasayib kelmoqda, chunki mehnat va ekologik Qonunchilik qat'iylashib, ishchi kuchi xarajatlarining oshishi tarmoqni boshqa Osiyo mamlakatlariga, ayniqsa, paxta tolasi iste'moli o'sishi bo'yicha etakchilik qiladigan Vetnam va Bangladeshga o'tishga majbur qildi. 2032 yilga borib jahon paxta iste'moli 28,1 mln tonnaga etishi kutilmoqda.

Dunyo bo'yicha tola savdosi 2023 yilga nisbatan 15,8 foizga o'sib, 2032 yilga kelib 11,9 mln tonnaga etishi prognoz qilinmoqda. Bangladesh va Vetnam kabi to'qimachilik sanoati rivojlangan mamlakatlar ko'p jihatdan xomashyo importiga bog'liq ekanini hisobga olib, jahon savdosi umumiy iste'molga qaraganda yuqori sur'atlar bilan o'sadi. O'sib boruvchi farq, asosan, paxta sanoati ko'proq eksportga yo'naltirilgan Braziliya va AQSh kabi etakchi ishlab chiqaruvchi mamlakatlar hisobiga to'ldiriladi. Umuman, kelgusi o'n yil ichida jahon paxta bozorining tuzilishi sezilarli darajada o'zgarishlari kutilmoqda. 2032 yilga borib AQShning jahon savdosidagi ulushi 33 foizga (qariyb 3,6 mln tonna), Braziliya ulushi esa 26 foizga etadi. Bunda Sahroi Kabirdan janubgacha bo'lgan Afrika mamlakatlari AQShdan keyin uchinchi yirik paxta xom-ashyosi eksportchisi bo'lib qolishi bashorat qilinmoqda.

To'qimachilik tolasiga jahon talabi past va o'rta daromadli mamlakatlarda aholi soni va daromadlarining o'sishi hisobiga keskin oshdi. Ushbu ortib borayotgan talab, asosan, sintetik tolalar hisobiga qondiriladi. Sintetikaning paxtaga nisbatan turli afzalliklari, jumladan, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallanganligi, tashqi ta'sirlarga chidamliligi, namlikni shimib olishi va/yoki raqobatbardosh narxlar to'qimachilik sanoatida paxta tolalariga nisbatan sintetik tolalarni afzal ko'rishga olib keldi. Natijada, tabiiy tolalarning global iste'moli 2021 yilda yuqori cho'qqiga chiqib 27,0 mln tonnani tashkil etgan bo'lsada, 2023 yilda taxminan 24,5 mln tonnaga qisqardi. 2022 yilda sintetik tolalardan yakuniy foydalanishda bozor ulushi 76,7 foizga, paxtadan esa – 23,3 foizga etdi. Lekin, Xitoyda paxta ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar, shuningdek, Vetnam, Bangladesh va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida yanada barqaror to'qimachilik sanoatining o'sishi so'nggi yillarda paxta iste'molining ortishiga xizmat qildi va prognozlarga ko'ra, kelgusi o'n yillikda ham o'sishda davom etadi. Vetnam 2020 yil o'rtalarida Evropa Ittifoqi bilan tuzilgan Erkin savdo to'g'risidagi bitim tufayli fabrikalardan foydalanishning yillik o'sishi bo'yicha etakchi bo'ladi. Bangladesh va Indoneziyada mahalliy tikuvchilik va to'qimachilik sanoati tomonidan ip va matolarga talabning ortishi (yiliga mos ravishda 3,4% va 3,2%) yangi yigiruv quvvatlariga yoki mavjud fabrikalarning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan investisiyalarni rag'batlantirdi.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. O'z yirik xomashyo bazasining mavjudligi, sanoat tarmoqlarining mehnat talabligi, qo'shni mamlakatlarda nisbatan katta bozorlarning mavjudligi O'zbekistonda to'qimachilik va tikuvchilik ishlab chiqarishini rivojlantirishni salohiyatli o'sish drayverlaridan biriga aylantirdi. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish va mamlakatda kuchli to'qimachilik va tikuv tarmog'ini shakllantirish – milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekistonda ham tikuvchilikda foydalaniladigan iplardan tashqari asosan chakana savdo uchun mo'ljallanmagan kalava ipni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bo'lib, ishlab chiqariladigan kalava iplarning 85 foizini paxta tolasi tashkil etadi. O'zbekistonda ishlab chiqariladigan kalava-ipning ushbu turdagi mahsulotlar jahon eksporti hajmidagi ulushi 3,5% bo'lib, uning qiymati 1750 mlrd. doll.ni tashkil etadi. SHuningdek, BusinessStat ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston jahonda tarkibining 85 foizini paxta tolasi tashkil etgan kalava-ipni eksport qiluvchi yetakchi mamlakatlar reytingida 7 – o'rinni egallaydi. Xususan, Hindiston, Pokiston va

Vetnam kalava-ipni eksport qiluvchi asosiy mamlakatlar bo'lib hisoblanadi. Ular hisobiga dunyo bo'yicha eksport qilinadigan kalava-ipning deyarli yarim ulushi to'g'ri keladi.

Dunyo bo'ylab kalava-ip sotuv hajmining oshishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bu to'qimachilik korxonalari tomonidan shakllantirilayotgan talab bo'lib hisoblanadi. Tabiiy toladan ishlab chiqariladigan kiyim-kechaklarga aholi talabining oshishi hamda dunyo aholisi sonining ko'payishi bevosita to'qimachilik korxonalariga ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish zaruratini shakllantiradi.

Jahon miqyosida 2023 yilda kalava-ip importi qiymati uni yetkazib berish narxi va hajmi oshishi bilan o'sishga erishdi. 2023 yilda import qiymati 24,22 mlrd. dollarni tashkil qilib, o'z navbatida bu natija 2015 yilga nisbatan deyarli 43 foizga yuqori bo'ldi. Mahsulotga talab hajmining eng ko'p o'sishi Gonkong (158,7 %), Turkiya (156,6 %) va Xitoy (151,1 %) mamlakatlarida yuzaga keldi, natijada esa ushbu mamlakatlar kalava-ipning jahon miqyosidagi import hajmida o'z ulushlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

So'nggi bir necha o'n yillik davomida rivojlanayotgan mamlakatlar to'qimachilik mahsulotlarining jahon bozorida o'z ulushlarini sezilarli darajada oshirishga erishdi. Xususan, ushbu mamlakatlar ichida Xitoy eng yirik eksporter hisoblanadi, undan keyin esa Gongong (eksport mahsulotlarining asosiy hajmini Xitoydan reeksport qiladi), Janubiy Koreya, Tayvan. AQSH, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'zlarining to'qimachilik sanoatidagi ulushlarini rivojlanayotgan mamlakatlarga o'tkazgan holda, to'qimachilik mahsulotlarini eng yirik sotib oluvchi mamlakatlarga aylanganlar (Abdullaeva, 2020).

Rivojlangan mamlakatlardan Italiya qimmatbaho hamda yuqori sifatli mato va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish hisobiga to'qimachilik sanoatining yetarli darajada muhim ulushini (Eldagi to'qimachilik mahsulotining 1/3 qismidan ko'prog'ini) saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Rivojlangan mamlakatlarning to'qimachilik sanoati tarkibini tahlil qilish asosida shunday xulosani shakllantirish mumkin, fikrimizcha, sohada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda, xususan trikotaj va noto'qima materiallar ishlab chiqarish hajmi o'sib, ishlab chiqarish jarayoni boshqa turdagi matolarga nisbatan kam mehnat talab qilmoqda. Trikotaj ishlab chiqarish bo'yicha AQSH qolgan barcha to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga nisbatan yetakchi hisoblanadi (EI ga nisbatan 3 barobar ko'p).

Xulosa va takliflar.

To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi hamda ularni jahon bozorlarida realizatsiyasini amalga oshiruvchi mamlakatlarning statistik ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida, to'qimachilik mahsulotlari bozorining muhim asoslaridan biri paxtadan tayyorlangan matoning jahon bozori ekanligini xulosa qilish mumkin. O'tgan yillarda ushbu mahsulotning tashqi savdo aylanmasi deyarli 42,8 trln. dollarni tashkil etgan, undan 33,8 foizi eksport ulushiga to'g'ri kelgan. Paxtadan tayyorlangan matoning talabgorlari ko'p bo'lsada, hozirda jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamaytirilishi yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish tizimini rivojlantirish bo'yicha to'qimachilik korxonalarida qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Xususan:

- to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini tizimli tashkil etgan holda mahsulot ishlab chiqarish nomenklaturasini ko'paytirish, ya'ni faqat kalava-ipni ishlab chiqarishga ixtisoslashishni oldini olish;

- to'qimachilik va trikotaj matolarini iste'molchilar talablarga mos holda bo'yashni tashkil etish. Bu o'z navbatida, to'qimachilik korxonalari tomonidan import qilinayotgan matolar uchun sarflarni kamaytirish imkonini beradi;

- to'qimachilik korxonasida bo'yalgan va yarim tayyor material ko'rinishiga keltirilgan matolardan yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan pirovard mahsulotlarni ishlab chiqarishni joriy etish;

- sun'iy kimyoviy tolalardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'rish, ya'ni cheklangan yuqori sifatli paxta tolalarini o'rnini bosa oladigan sun'iy tolalardan pirovard mahsulotlarni ishlab chiqarish.

Адабиётлар / Литература / Reference:

Davlyatova G.M., Abdullaeva C.X. (2019) *Systemic principles and regularities of commercial enterprise as a socio-economic system*. // *Journal of Economy and Business*, (6-1). p.95. Doi <https://dx.doi.org/10.24411/2411-0450-2019-10827>. <https://cyberleninka.ru/article/n/18235040>.

Gafurova F.S., Davlyatova G.M. (2019) Identification and mobilization of reserves of the rational use of resources as a factor of increasing production efficiency. *Problems of modern science and education*, 12 (145) Part 1. P.52. Doi <https://portal.issn.org/resource/ISSN/2413-4635>.

Ibragimov G., Khurramov A., Kazakova Z. va boshqalar. (2020) *International Engineering Journal for Research & Development*, Vol. 5, Issue 4, avgust. DOI: 10.17605/OSF.IO/2ZR8E.

IMARC Group, (2024); Mordor Intelligence, 2024.

Textile Exchange. (2023). *Preferred Fiber & Materials Market Report*.

To'xtayev, Z. (2024). TO'QIMACHILIK KORXONALARINI EKSPORT FAOLIYATI SAMARADORLIGINING TAHLILI. In *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss11-pp306-310>.

Zahra Saki, Lori Rothenberg, Marguerite Moor, Ivan Kandilov, A. Blanton Godfrey. (2019). *Forecasting U.S. Textile Comparative Advantage Using Autoregressive Integrated Moving Average Models and Time Series Outlier Analysis*. https://arxiv.org/abs/1908.04852?utm_source=chatgpt.com.

Abdullaeva Sevarakhon (2019). *Improving of organizational mechanism of leasing*. // *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Doi <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1669&context=namdu>.

Abdullaeva Sevarakhon KHasanovna (2020) / *Issues of Ensuring Economic Stability in the Textile Industries*. // *JournalNX*. VOLUME 6, ISSUE 12 Doi <https://media.neliti.com/media/publications/335549-issues-of-ensuring-economic-stability-in-de5aaaf9.pdf>.